
Xalq deputatlari Farg'ona shahar Kengashining oltmish ikkinchi sessiyasi bo'lib o'tdi,

Sessiyaga shahardagi sektor rahbarlari, kun tartibiga kiritilgan masalaga daxldor tashkilot va muassasalar rahbarlari taklif etildi.

Sessiya kun tartibida quyidagi masalalar ko'rib chiqildi:

????O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 may kungi "Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini manzilli qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-258-sonli qaroriga asosan shahardagi ijtimoiy ahvoli og'ir bo'lgan oilalarga "Sahovat va ko'mak" jamg'armasi va boshqa manbalar hisobidan bepul un tarqatish hamda Farg'ona shaharda istiqomat qilayotgan ehtiyojmand fuqarolar tomonidan kelib tushgan murojaatlariga asosan "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi hisobidan mablag' ajratish to'g'risida (Ma'ruzachi - shahar hokimining birinchi o'rinbosari Boburjon Mo'minov)

????"Yoshlar daftari" jamg'armasi hisobidan mablag' ajratish to'g'risida (Ma'ruzachi - Yoshlar ishlari agentligi Farg'ona shahar bo'limi boshlig'i Ahadjon Akramov)

????"Ayollar daftari" jamg'armasi hisobidan mablag' ajratish to'g'risida (Ma'ruzachi - shahar hokimi o'rinbosari - oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Dilshodaxon Xolmatova)

????O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022 yil 16 martdagi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Farg'ona shahridagi 70 ta mahallalarda joriy yilning 16 maydan 1 iyun kuniga qadar Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovi o'tkazildi. Sessiya davomida ushbu masala yuzasidan xalq deputatlari Farg'ona shahar Kengashi deputati, Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi shahar komissiyasi raisi Tohirjon Normatovning axboroti ham eshitildi.

Xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlari tomonidan muhokama, taklif va mulohazalardan so'ng qaror loyihalari deputatlar tomonidan bir ovozdan qabul qilindi.

2022-06-18 09:12:07